

***NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSITITUTI
XORIJIY TILLAR FAKULTETI INGLIZ TILI VA
ADABIYOTI TA'LIM YO'NALISHI
2-"A" GURUH TALABASI
NOSIROVA XURSHIDANING PEDAGOGIKA
FANIDAN TAYYORLAGAN***

Mustaqil ishi

NAVOIY-2014

O'QITUVCHINING FAOLIYATI, PEDAGOGIK VA KOMMUNIKATIV QOBILIYATI

Reja

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida va respublikamizning ta'lim to'g'risidagi qonunida o'qituvchi va o'quvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.
2. O'qituvchi kasbining tarixan taraqqiyoti, uning jamiyatda tutgan o'rni.
3. Pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosligi.
4. Pedagogik mahorat mohiyati, uning tarkibiy qismlari
5. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha bo'lgan davrda o'qituvchi - ustoz, shogird va ularning jamiyatdagi o'rni masalalari.
6. Sharq mutafakkirlari ijodida o'qituvchi, ustoz - shogird munosabatlari, jamiyatda o'qituvchi o'rni masalalarining yoritilishi.
7. O'qituvchining innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z nutqlarida yoshlarga katta ishonch bildirib, O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida ekanligini ta'kidlar ekan, avvalo yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlar qilib etishtirish o'qituvchi va tarbiyachilarning fidokorona mehnati bilan bog'liqligini nazarda tutadi.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama etuk, komil insonni tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir.

Prezidentimiz o'zining qator nutqlari va asarlarida ta'lim tarbiya masalalariga to'xtalganda, o'qituvchini e'tibordan chetda qoldirmaydi.

I.A.Karimov Oliy Majlis IX sessiyasida so'zlagan "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzuidagi nutqida jamiyatimizda ta'lim berish tizimi, yangilanish jarayoni talablari bilan yaqindan bog'lanmaganligi sabablaridan biri o'qituvchiga borib taqalishini aytib o'tadi: "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy ta'lim berish ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz.

Mening fikrimcha, ta'lim - tarbiya tizimini o'gartirishdagi asosiy muammo ham mana shu erda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.

Bundan ko'rinadiki, o'qituvchi avvalo zamonaviy bilim bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Eski ta'lim tizimining yana bir qusuri, boshlang'ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qarayotganligimizdadir, - deydi prezidentimiz: "Ochiq aytishimiz kerak: bilimi sayoz muallimlar birinchi sinfda dars beraveradi.

Boshlang'ich ta'limga past nazar bilan qaralishining isboti shuki, sobiq SSSRda butun boshli pedagogika texnikumlari va bilim yurtlari tizimi tashkil etilib, ular asosan 1-4 sinf o'quvchilarni o'qitadigan muallimlar tayyorlar edi.

Vaholanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng etuk, eng tajribali murabbiylar berkitib qo'yilishi oddiy mantiqning o'zi talab etadi.

Prezidentimiz qo'yayotgan yana bir talab demak, boshlang'ich sinflarga eng etuk, tajribali o'qituvchilarni qo'yish.

I.A.karimov o'zining qator asarlarida ta'lim - tarbiya sohasidagi islohotlarimizning mazumuni erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilishini ta'kidlab o'tadi. Bu jarayonda o'qituvchi - o'quvchi munosabatini o'zgartirish talab etiladi. Yurtboshimiz: "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak" - deyish bilan maktablarda mustaqil fikrlashga o'rgatilmayotganligiga ham to'xtalib o'tadi.

Maboda biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Printsip ham tayyor: "Mening aytganim aytgan deganim - degan".

O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

O'qituvchiga qo'yiladigan yana bir muhim talab, yangi pedagogik texnologiyalarni chuqur tushunib etib va bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat.

Prezidentimiz Oliy Majlis XI sessiyasida soʻzlagan "Konstitutsiyamiz inson manfaati uchun xizmat qilsin" nutqida tarbiyachi va oʻqituvchilarni Oʻzbekistonda boʻlayotgan turli xavflardan yoshlarni himoya qiluvchi boʻlib maydonga chiqishga chaqiradi: "Olimlarimiz, ta'lim tarbiya dargohlarining tarbiyachilari, oʻqituvchilari Oʻzbekistonga boʻlgan xavf va tahdidlarni toʻgʻri tahlil qilib, bolalarimiz taqdiri uchun birinchi navbatda yonib harakat qilishi, bolalarimizni bunday yovuz xavfdan himoya qilish zarur". (Barkamol avlod orzusi 77-bet).

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kundanoq ta'lim muassasalarining oldiga muhim yangi va ustuvor vazifalarni qoʻydi. Har tomonlama rivojlanishda oldinda borayotgan jamiyatimiz bugungi kunda ta'lim sohasida milliy modelimizga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashni yanada yaxshilash muammosini koʻndalang qoʻymoqda. Bu esa bugungi kunda ta'lim sohasida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur oʻrgangan holda emas, balki har tomonlama rivojlangan barkamol inson, muomala madaniyatiga ega boʻlgan, oʻz ishining mohir ustasi etib tayyorlashga katta eʼtibor berishni talab etadi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda «...biz oʻz isteʼdodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarmizga bilim va kasb choʻqqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak».¹ Ayniqsa, hozirgi davrning bu talab boʻlajak oʻqituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va qobiliyat bilan qurollangan, oʻz fanini sevadigan madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor taʼkidlab bermoqda.

Qobiliyatlar – odamning shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, malaka, koʻnikma orttirish shu xususiyatlarga bogʻliq boʻladi, lekin bu

¹ Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). –T.: Sharq, 1998. 119-bet.

xususiyatlarning o'zi bu bilim, malaka va ko'nikmalarga taalluqli bulmaydi. Masalan, Ikkita bola institutga kirayapdi deylik. Ulardan biri test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdi, ikkinchisi o'tolmadi. Bunda ulardan birining qobiliyati ortiq degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Bilim orttirishdagi muvaffaqiyatning faqat bir o'zi bilan qobiliyatni aniqlab bo'lmaydi. Qobiliyatlar bilim, malaka, va ko'nikmalarini egallashda namayon bo'lsa ham ular bilim, ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydilar. Odamning qobiliyatlari bilim va ko'nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi, bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'liqdir. Bolada namayon bo'lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo'lishiga kofil bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi uning unga maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so'lib ketishi ham mumkin. O'quvchida hali zaruriy ko'nikma va malakalar sistemasi hamda mustahkam bilimlar va tarkib topgan ish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirmay shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy xatosi buladi. Bolalik paytida ma'lum qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobiliyat tufayli shon shuhrat topgan odamlar ko'p.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir - birlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namayon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faolyait uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, engil va mustahkam amalga oshirishingizda namayon bo'ladi. Xuddi shu erda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi. Demak,

qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaf-faqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namayon bo'ladigan individual - psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatlari yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agar boshqa bir odat bo'lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlarni boshqacha aytganda qobiliyatlar yo'q deb faraz qilishga asos bo'ladi. Bularni egallash jarayoni chuzilib ketadi, pedagogdan ko'p kuch va vaqt sarflashni talab qiladi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 5-moddasida tegishli ma'lumoti "kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" ekanligi ta'kidlanadi.

Qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va hozirgi kunimiz talabi bo'yicha o'qituvchiga qo'yilgan talablar ham kengayib, murakkablashib bormoqda.

O'qituvchilik sharaflidir, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi. O'qituvchining yosh

individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma - xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Shuning uchun hozirgi kun o'qituvchisi:

pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;
O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;
ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchi ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;
erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Davlatimiz xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi kunda ta'lim - tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma -xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Har bir jamiyatda, oldingi tuzumlarda ham o'qituvchi ustoz muallim oldiga eng muhim vazifa jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi qo'yilgan.

Hatto ibtidoiy jamoa tuzumi oxirlaridayoq yoshlarni tarbiyalash muassasalari tashkil etilib, ularda ancha tajribali, hayotni ko'rgan oqsoqollar bolalarni tarbiyalaganlar.

Quldorlik davrida esa quldorlarning bolalari uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. Qadimgi Gretsiyada bolalarni o'qitadigan kishini didaskal ("o'qitaman", "o'rgataman") deb ataganlar. O'g'il bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borgan, bunday qul pedagog ("paye") bola, "agogayin" etaklab bormoq deb atalgan.

Bu tushunchalar hozirda ham o'qituvchiga nisbatan ishlatilib kelinadi. Lekin uning mohiyati boshqacha ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyatda ham pedagoglarga o'qituvchi tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan.

Ayniqsa bizning mustaqil O'zbekistonimizda o'qituvchiga hurmat e'tibor va unga qo'yiladigan mas'uliyat ham nihoyatda oshib bormoqda.

Hozirgi kunda o'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shayotgan ijodkor o'qituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Mohir o'qituvchilarni aniqlash uchun o'tkazilayotgan tanlovlar ana shu yutuqlarga omil bo'lmoqda. Maktablarda metodist o'qituvchi, katta o'qituvchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, O'zbekiston xalq o'qituvchisi unvonlariga sazovor bo'lgan o'qituvchilar soni ko'paymoqda.

1997 yil 6 oktyabrda Prezidentimizning "Ta'lim - tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilinib, bunda shunday deyiladi: "Ta'lim muassasalarida birinchi navbatda Oliy ta'lim muassasalari professor - pedagogik xodimlar safidan etuk o'qituvchi kadrlar tayyorlash ularni rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limidagi ijobiy tajribalarini o'rganishi o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari bilan tanishishi va chet ellarda tajriba orttirishini ta'minlash maqsadida "Ustoz" respublika jamg'armasi tashkil etilsin".

O'qituvchilar safidan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko'maklashish, ixtidorli, yosh pedagoglarni aniqlash, ularning iqtidori kasbiy malakasini yuksaltirish, rivojlangan demokratik davlatlarni etuk o'quv yurtlarida va markazlarida tajriba orttirishga ko'maklashish maqsadida bu jamg'arma tuzilgan edi.

Umuman o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilikning diqqat markazida turibdi. O'qituvchilarni falsafiy jihatdan keng fikrlovchi mushohadali bo'lishlariga e'tibor berilayotir.

Bu g'amxo'rliklarga sabab, xalqimiz, millatimiz kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchi, uning saviyasi, fidoyiligiga bog'liqdir.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida davlat oldida javob beradigan bolalarga ta'lim tarbiya berish maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Maktab o'qituvchilarning faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir bola o'z xulq atvoriga, xarakteriga ega. Tarbiyada anashu xususiyatlarni hisobga olish kerak. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlr ana shunday xususiyatlarni bilishi lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari professiogrammasida ifodalanadi, professiogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari.
2. O'qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga quyiladigan talablar.
3. Maxsus tayyorgarlikni hajmi va mazmuni.
4. Ixtisosga oid umumiy tayyorgarlikning mazmuni.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:

G'oyaviy sohada: Ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy - siyosiy faollik.

Pedagogiklik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik

qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik.

Bilim sohasiga: keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqih, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish.

Pedagogik faliyatlar kishini o'ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umulashtirish tajribasi bilan boytadi.

Pedagogik malaka - egallagan bilim va ko'nikmalarni faoliyatning ma'lum turini eegallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir.

O'qituvchi faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi:

a) amaliy konstruktiv malakalar:

Amaliy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish faoliyatining eng muhim qoidalarini tanlay bilish.

Har bir o'quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual rejasini amalga oshira bilish.

O'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga nisbatan individual munosabatni amalga oshira bilish.

b) Tashkilotchilik malakalar:

O'quvchilar orasidagi aktiv bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish, ularni idora qilish.

O'quvchilarning turli xildagi jamoa individual holatini uyushtira bilish, ularni ijtimoiy aktivliklarini bilish.

O'quvchilarga berilgan jamoa ijtimoiy topshiriqlarni berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtda amaliyo yordam berish.

O'zi rahbarlik qilgan sinfda amaliy ishlarni boshqarish.

Ota- onalar va keng jamoatchilik o'rtasida ishlar tashkil eta bilishi, maktab rejimi shunday tuzilishi kerakki: bola maktabda yaxshi o'qisin, samarali xizmat qilsin, yaxshi dam olsin, hamma vaqt foydali va qiziqarli mashg'ulot

bilan band bo'lsin, bunday faoliyatni uyushtirishga doir pedagogik talablar qo'yiladi.

O'qituvchi oldiga qo'yiladigan talablar:

Faoliyatdan kutilgan maqsadni o'quvchilar jamoasi ham alohida o'quvchi ham aniq his qilsin. (Masalan: metallom yig'ish bunga o'z xoxishlari bilan kirishishlari lozim.)

Faoliyatni tashkil etish o'quvchilar tashabbusi va ijobiy faollikka suyanish lozim. Ishni taqsimlash, rejalashtirish, hisobga olish, natija chiqarish kabilarni o'quvchilarning o'zlariga havola qilish kerak.

O'qituvchi faolyaitiga pedagogik rahnamolik qiladi.

Faoliyat jarayonida har bir bola sohibkorlik va ijrochilik malakalarini egllab borishi.

Ish natijasini muhokama qilish, ishtirokchilarni rag'batlantirish.

Xush pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topgan?

Bu fahm farosat va bilimlarning chinakam ilmiyligi, tarbiyadagi qiyinchiliklarining engishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlik bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat mujassmdir.

Ped mahoratga pedagogik bilimlar, fahm - farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Har bir mohir pedagogning shunday zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur masalalarni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch - g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi kollektivga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql - idrokni bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini talab qiladi.

A.S.Makarenko aytganidek, "Agar pedagog mahoratni egallamas ekan, agar u bolalar muhitidagi ilg'or kuchlarga ayana olmas ekan, ularning o'stirishini rag'batlantirib, eng yaxshi faoliyatlarini rivojlantira olmas ekan, u muqarrar ravishda shaxsiy ta'sir ko'rsatishni mutloqlashtirib boradi, ya'ni o'ziga eng oson yulni tanlaydi.

Chinakam mahorat bilan obrutalablik bir biri bilan sig'isha olmaydi. Agar chinakam mahoratli pedagog hamma vaqt munosabatlar sistemasi bolalarning ijodiy kamolatiga yordam berishi lozimligini o'ylasa obrutalab pedagog ularning mustaqil faoliyatini nihoyatda toraytirib, ularning so'zsiz qo'loq solishlarini yoqtiradi, bu bilan bolalar muhitidagi tarqoqlikka ko'maklashadi".

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi - tarbiyachi bu madaniyatni egallamas ekan hech vaqt o'zi kasbining chinkakam ustasi bo'la olmaydi.

Zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi. Bolalarni kuzatish, ularni o'sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlanish yo'llari va usullarini aniqlash turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir - biriga o'tishi dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir.

a) o'qituvchi faoliyatining insonparvarlik yunalishi;

- b) ixtisosga doir bilimlar mutaxassislik fanini, uni o'qitish metodikasini pedagogika va psixologiyani chuqur bilish;
- v) pedagogik qobiliyat (bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, obru orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari va pedagogik nazokat odob - axloq);
- g) pedagogik texnika (nutq malakasi, mimik pontamimik ifodaliligi, o'z hissiy holatini boshqarishi.)

"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokt, yo saodat, yo falokat masalasidir", - degan edi milliy tarbiyamiz daxolaridan biri A.Avloniy. ?ayot, najot, saodatga eltuvchi ish, tarbiyani amalga oshiruvchi zot - o'qituvchidir.

Bolalarga yaxshilik qilish va mehribonlik ichki kechinma va holatigina emas, balki pedagogik faoliyatimizdagi bola bilan yoki sinf bilan munosabatdagi asosiy motiv, asosiy rag'bat bo'lishi kerak. Bolalarga yaxshilik qilishimiz va mehribonligimiz, ular bilan qo'pol muomalada bo'lishimizga, ularning nafsoniyatini va qadr - qimmatini siqishtirishga, ularga baqirish va ularni qo'rqitishga, ulardan har birining qayg'u alamini sezmaslikka va har biri erishgan yutug'idan xursand bo'lmaslikka ularga yordamga kelmasligimizga ishonchsizlik ko'rsatishimizga yo'l qo'ymaydi. Bolani butun qalbi bilan sevadigan mehri daryo pedagog ko'proq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi, u chinakam pedagogik hayot kechiradi, shu tariqa professional baxtiga erishadi.

Insonparvar pedagog bolalrni bilim bilan tanishtirayotganda ayni vaqtda ularga o'z xarakterini bera oladi, ularga odamiylik namunasi bo'lib ko'rinadi. Bola uchun o'qituvchisiz bilim yo'q.

Shuning uchun bola o'qituvchisini yaxshi ko'rib qolsa, demak u bilimga qiziqib qoladi. Bolalar mehrini qozonmoq o'qituvchining zarur ishi,

faqat o'z o'qituvchisini yaxshi ko'rgan bola bilimlar olamiga kirib boradi. Jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtira boradi.

Ta'lim va tarbiya metodlari, usullari, formalri pelagogning bolalarga mehr muhabbatidan harorat oladi va insonparvarlik hissi to'la qalbidan o'tib takomillashadi.

O'qituvchining o'zi bir shaxsiyat bo'lishi kerak, negaki shaxsiyatni faqat shaxsiyatgina tarbiyalab berishi kerak. Insonparvarlikni faqat qalb mehrigina berishi mumkin. U albatta keng ma'lumotli ijodiy kishi bo'lishi kerak, negaki bilim ishtiyoqini faqat shu ishtiyoqda yongan kishiga yoqshi mumkin.

Bizning jamiyatda o'qituvchi bolalarni kelajak haqidagi orzu - umidlar bilan ruhlantirishga kelajak ideallarini hozirdan mustahkamlashni ularga o'rgatish, kelajak bolalr qoshiga kelgan kishidir.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha bo'lgan davrda o'qituvchi o'stoz, shogird va ularning jamiyatdagi o'rni, mahorati haqidagi fikrlari.

Hozirgi kundagi o'qituvchi - tarbiyachi faoliyati, mahorati, ularning jamiyatdagi o'rni, ustoz - shogirdlik munosabatlari haqida gapirishdan avval, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida ustoz - o'qituvchi tarbiyachi faoliyati masalalariga to'xtalib o'tish lozim.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida jamiyat yoyosh jihatidan 3 guruhga bo'linar edi:

1. Bolalar va o'smirlar.
2. Hayot va mehnatning to'la qimmatli va to'la huquqli ishtirokchilari.
3. Keksalar.

Yangi tug'ilgan bolani jamodagi keksa kishilar boqib, o'stiradilar. Bola tegishli biologik yoshga to'lib, ba'zi bir ijtimoiy tajriba mehnat qilishni o'rganib, hayotiy bilim va malakalarni egallagandan so'ng to'la qimmatli mehnatchilar guruhiga o'tardi. Ibtidoiy jamiyatda bola o'zining hayot

faoliyati jarayonida kattalarning ishlarida qatnashib ular bilan kundalik muomalada bo'lib, tarbiyalanar va ta'lim olar edi. O'g'il bolalar katta yoshdagi erkaklar bilan ularning ishlarida qizlar esa ayollarning ishlarida qatnashardilar. Matriarxat oxirlarida o'g'il bolalar uchun alohida va qizlar uchun alohida tarbiya muassasalari - yoshlar uylari muassasalari paydo bo'ldi. Bu erda yoshlar urug' aqsoqollari ruhbarligida yashashga mehnatga o'tkaziladigan sinovlarga tayyorlanar edilar.

Patriarxal urug'chilik bosqichida chorvachilik, dehqonchilik, turli hunar kasblari paydo bo'ldi. Shu bilan bog'liq ravishda tarbiya ham murakkablashib, ko'p tomonlama va rejali bo'la bordi. Bolalar tarbiyasi tajribali kishilarga topshiriladigan bo'ldi. Ular bolalarga mehnat ko'nikma va malakalarini o'rgatish bilan bir qatorda paydo bo'lib kelayotgan diniy urf - odatlarning qoidalari, naqllar bilan bolalarni tanishtirar, yozishga o'rgatar edilar. Ertaklar, o'yin va raqslar, musiqa va ashula, butun xalq og'zaki ijodi xulqni, hatti - harakatni, xarakterning muayyan belgilarini tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

Tarixiy manbalarga ko'ra bolalar savod maktablarida o'qitilgan, bundan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy, jismoniy mashqlarga va hunarga o'rgatilgan. Bolalar tarbiyasida oilaning ayniqsa, onalarning o'rni ham katta bo'lgan. 5 yoshgacha asosan ayollar tarbiyalagan.

Qadimgi ajdodlarimiz yoshlarni vatanparvar, xalqparvar, sadoqatli, har qanday mashaqqatlarga bardoshli, jasur, kuchli, mard qilib tarbiyalashga e'tibor berganlar. Tarixiy shaxslar bilan bog'liq rivoyatlarda ham odamiylik, nazokat, aql - idrok, vafo - muhabbat, sadoqat, adolat kabilar ulug'lanadi. Bunday hislatlarni tarbiyalash, shakllantirish esa o'qituvchi ustozga yuklatilgan edi.

Sharq mutafakkirlari va allomalarining ijodiy meroslarida o'qituvchi tarbiyachi mahorati, ustozlik - shogirdlik shartlariga ham alohida o'rin berilgan. Quyida shulardan misollar keltiramiz: Masalan, mashhur faylasuf va mutafakkir, qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nosr Forobiy (873-930) ustoz - o'qituvchiga shunday talab qo'yadi: "Ustoz - shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o'qituvchiga bolalarning fe'l atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslahat beradi:

Tarbiyalanuvchilar o'qish o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.

Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

U o'qituvchining tarbiya usullarini hukumat (davlat) va shohlarning xalqni tarbiyalash va boshqarishdagi usullariga o'xshatadi, ularni qiyoslaydi. har ikkalasida ham yumshoqlik va majburlov zarurligini o'qtiradi.

Mashhur olim Beruniy (973-1048) o'qituvchiga o'quvchini zeriktirmaslikni, o'tiladigan mavzuni qiziqarli va ko'rgazmali holda bo'lishi lozimligini maslahat beradi. Beruniy ?indiston asarida esa olimlar ilm ahllarini hurmat qilishga chaqiradi. Bularni kishilar ayniqsa, hukumdorlar hurmat qilsa, ularga o'z o'rnida baho bersa, ilmlar ko'payadi, demak jamiyat iqqbolli bo'ladi, gullab yashnaydi.

Buyuk alloma Ibn Sino (980-1037) talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchi ekanligini ta'kidlaydi. U o'qituvchining qanday bo'lish kerakligi haqida fikr yuritir ekan, ularga shunday yo'l yo'riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarni bilishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunrli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berilishi;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi lozim.

XI asrda yashab o'tgan allomalardan biri Yusuf Xos Xojib (XI asr) ham ijodida ilm ahllarini ustozlarini ulug'laydi. "Qutadg'u bilig" asarida ilm ahli ulug'lanadi.

Ularni hurmatlashga kishilarni chaqiradi.

Tag'in bir toifa donishmand, dono

Ular ilmi elga mash'al doimo

E'zozla ularni to bor imkonining

Bilimlarin o'rgan toki bor joning

Bulardan haqiqat tayanch tirgagi

Bilimli diyonat asos o'zagi

Olimlar yo'q esa edi dunyoda

Emish ham kelarmu edi bu dunyoda

Ular ilmi bo'ldi xaloyiqqa nur

Yorisa bu nurdan kishi yo'l topur

Az - Zamaxshariy (1075 -1143) "Nozik iboralar" risolasida ilmu fan ahllari, o'qituvchilarga nisbtan hurmat e'tiborning pasayib ketganidan kuyinib yozadi: "O'tgan zamonlarda ilmu - fazilat sohiblari podshoxlardan o'z

og'irliklariga barobar oltin hadya olardilar, asta - sekin zamonlar o'tishi bilan ularning qiymatlari kamayib, itlaru - olmaxonlar ulardn afzal bo'lib qoldi, ya'ni nodonlar oltinlardan ortiq ko'riladigan bo'lib qoldi".

Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (Shayx Sa'diy) (1184-1204) ta'lim - tarbiyada muallimlarning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qatiqqo'l bo'lishning tarafdori bo'ladi.

Yubordi o'g'lini maktabga podsho,
Qilib qo'yishga nuqra taxtiga jo,
Kumush ul taxtaga zardan bitib yod,
"Ota mehridan afzal jabri ustoz".

"Gulistonda" yana ustoz - shogird munosabatiga oid hikoyat keltiriladi: "Bir odam kurash san'atiga zo'r mahorat qozondi, u 360 xiylandi bilar va har kuni bir xiylandi ishlatib kurashar edi. Shogirdlaridan biriga 359 xiylandi o'rgatdi. Ammo bir xiylandi o'rgatmadi. Ustozining hurmatini bilmagan shogird, ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so'z podshoga yoqmaydi. Ularni kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi xiylandini ishlatib shogirdini engadi. Ustoz hurmatini bilmagan shogird esa xaloyiq va podshoning nafratiga uchraydi.

Burxoniddin Zarnudjiy (1150 -) "O'qituvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" kitobining bir bo'limi "O'qituvchi, o'rtoq, fanlarni tanlash haqida" deb nomlanadi. Unda o'quvchiga quyidagicha maslahat beradi:

"O'qituvchi tanlaganingizda eng avvalo bilimlisiga, eng oliyjanobiga va yana keksasiga to'xtamoq kerak ... Muallim, ustozga nisbatan hurmatda bo'lish ifodasi shuki shogird muallimdan oldin yurmasligi, uning o'rniga borib o'tirmasligi lozim".

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) ham o'z hukmronligi davrida ilm ahllari, muallim, mudarisslarga hurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Jamiyatning rivojida ularning

o'rnini muhim deb biladi. Ko'plab maktab, madrasalar ochadi, ularga muallim va mudarrislar tayin etadi. O'zining ustozlarini ham juda qarlaydi.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida ham muallimlar ishi ularga munosabat masalalariga keng o'rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini o'qtiradi. Nodon, mutaassib, johil domlarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur deydi. Masalan: "Mahbub-ul-qulub" asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning o'ta qattiqqo'l, johil va ta'magirlarini: "Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarni jafo qiluvchidir", - deb yozadi. Shu bilan birga o'qituvchining mehnatining og'irligini hoisona baholaydi:

"Uning ishi odam tugul, hatto devning xam qo'lidan kelmaydi. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilar edi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi. Lekin shunisi ham borki, bolalar orasida fahmi idroki ozlari bo'ladi. Muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko'p, agar shogird ulg'aygach, podshoxlik martabasiga erishsa ham o'z muallimiga qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish rand ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila".

Navoiy o'qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo'ysa, unga bo'lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma'naviy pok bo'lishlarini talab etadi. "Mudarris kerakki g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa".

Xusayin Voiz Koshifiy (1440-1505) (Xuroson) "Futuvatnomai Sultoniyyoxud javomardlik tariqati" asarida ustoz - shogird munosabatlariga keng to'xtaladi. "Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so'rasalar, irodat ustiga deb javob bergin. Agar irodat nima deb so'rasalar, samo va toatdir deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon qo'log'i bilan eshitish, chin ko'ngli bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalga ado etishdir deb ayt".

U shogirlikning 8 ta odobini ko'rsatadi: 1. Birinchi bo'lib salom berish. 2. Ustozning oldida oz gapirish. 3. Boshni oldinga egib turish. 4. Ko'zni har tomonga yugurtirmaslik. 5. Gap so'ramoqchi bo'lsa oldin ustozdan ijozat olish. 6. Ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik. 7. Ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik. 8. O'tirib turishda hurmat saqlash.

Koshifiy ustozlik shartlarini ham ko'rsatadi. "Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmagan".

Kimki ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, birmuddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l ... Agar komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazxabli, o'z aybini ko'radigan dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi.

A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tasqkilot, aqoli, jamiyat, guruqqa yangi, nisbatan turqun unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarisqlarni tusqunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va bosqqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganisqning ikki yondasquvini ajratadilar: yangilikning

individual mikrosatqi va aloqida-alloqida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosatqi.

Birinchii yondasquvda qayotga joriy etilgan qandaydir yangi qoya yoritiladi.

Ikkinchi yondasquvda aloqida-alloqida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallasqdir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini taqlil qilisqda qayotning davriyligi kontseptsiasini farqlaydilar. Bu kontseptsia yangilik kiritisqga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsia jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi qoya tuqilisqi yoki yangilik kontseptsiasini paydo qilisq bosqichi, u kasqfiyot bosqichi deb qam yuritiladi.
2. Ixtiro qilisq, ya'ni yangilik yaratisq bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilisq bosqichi.
4. Yangilikni yoyisq, uni keng tadbiiq etisq bosqichi.
5. Muayyan soqada yangilikning qukmronlik qilisq bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

Yangi muqobillik asosida, almasqtirisq orqali yangilikning qo'llanisq doirasini qisqartirisq bosqichi.

V.A.Slastenin yangilik kiritisqni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratisq, keng yoyisq va foydalanisq jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning eqtiyoji va intilisqlarini yangi vositalar bilan qondirisq deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli kontsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muqim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritishni oddiy isqlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor maqsulot o'zlasqtirgan tasqikilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda isqlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish qam ichki mantiq, qam vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muqitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada "yangi" tusqunchasi markaziy o'rin tutadi. Squningdek, pedagogik fanda xususiy, sqartli, maqalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyqotadi.

Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlasqicha, joriy zamonaviylasqtirishda muayyan tizim maqsuloti unsurlaridan birini yangilasqni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yiqindisi sqartli yangilik qisoblanadi.

Maqalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanish bilan belgilanadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tusqunchalari farqlanadi.

Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va bosqqalar.

V.I. Zagvyazinskiy yangi tusqunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina qoya emas, balki qali foydalanilmagan yondasquvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki aloqida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sqaroitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali qal etishning ilqor bosqlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan qolat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish sirt-sirti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baqolashtirish bloki: pedagogik jamoatlar, yangini baqolashtirish va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muqiti, pedagogik jamoatlarning yangini idrok etish va baqolashtirishga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

M.M.Potasnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yigindisi;

sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va bosqich satrlari;

satrliq tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va bosqich satrlari;

mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy isqlar, bosqqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lisqi, isqlab chiqilisqi va o'zlasqtirilisqi;

bosqichlilikka asoslangan qayot davriylik tuzilmasi – yangilikning paydo bo'lisqi - ildam o'sisq - etuklik – o'zlasqtirisq - diffuziya (singib ketisq, tarqalisq) – boyisq (to'yinisq) – qoloqlik - inqiroz – irradiatsiya (aldanisq) – zamonaviylasqtirisq;

bosqqaruv tuzilmasi - bosqqaruv qarakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalasqtirisq - tasqkil etisq - raqbarlik qilisq - nazorat qilisq;

tasqkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilisq, sof tasqkiliy, amaliy, umumlasqtiruvchi, tadbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon kechisqining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

pedagogik innovatsiya muqitining ayovsiz bemaromlik qonuni;

niqoyat amalga osqisq qonuni;

qoliplasqtirisq (stereotiplasqtirisq) qonuni;

pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanisqi va qaytisqi qonuni;

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va qodisalar to'qrisidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baqolanadi va u yangilikning aqamiyati va qimmatini keng yoyadi.

Niqoyat amalga osqisq qonuni yangilikning qayotiyligi bo'lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravisqda amalga osqadi.

qoliplasqtirisq (stereotiplasqtirisq) qonuni squndan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlasqni bir qolipga tusqirisq va amaliy qarakatga o'tisq tendentsiyasiga ega bo'ladi. Bunday qolatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, bosqqa yangiliklarning amalga osqisq yo'liga to'siq bo'lisqga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanisqi va qaytisqi qonunining moqiyati squndaki, unda yangilik yangi sqaroitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan eqtiyoj qisobga olinmaydi, uni amalga osqirisqning barcha sqart-sqaroitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat maqsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va bosqqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondasquvlarni belgilasq mumkin:

madaniyatsqunoslik jiqatidan (insonni bilisqning ustuvor rivojlanisqi) yondasquv;

saxsiy faoliyat jiqatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondasquv;

ko'p sub'ekтли (dialogik) yondasquv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlasqtirisq;

individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari) yondasquv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning sub'ekti o'qituvchi, uning sqaxsiy imkoniyati qisoblanadi. Bunda o'qituvchi sqaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak aqamiyatga molik bo'ladi.

S.M.Godninning isqlarida talabanning sqaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida yoritiladi. Unga quyidagilarni kiritadi: o'qitisqning qozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilisq;

intellektual meqnatning yangi tadbirlarini egallasq; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalasq va mustaqil taqsil olisq, qiyinchiliklarni a'lo darajada eng bilisq, o'sisq va mustaqkam o'rin egallasqning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqisq, o'zining sotsial roli, funktsiyasini bajarisqida faol munosabatda bo'lisq va qokazo.

Innovatsion pedagogik jarayonning muqim unsurlari sqaxsning o'z-o'zini bosqqarisqi va o'zini- o'zi safarbar qila olisqi qisoblanadi. Uning eng muqim yo'nalisqlaridan biri talabalarning bilisq faoliyatini rivojlantirisq.

Bunday yo'nalisq talabalarning o'quv isqlarini faollasqtirisq, ularning kasbiy ixtisoslasqisqini aniqlab olisq faolligini o'z ichiga oladi.

Tayanch yo'nalisqlar - ta'lim, fan va isqlab chiqarisqning integratsiyalasquvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tisq.

Squnday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi taqlili uning eng muqim yo'nalisqi gumanistik aksiologiya ekan degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondasquv insonning o'zini yangilik yaratisq jarayoniga baxsqida qilisqi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzisqda unga akmeologik jiqatdan yondasqadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxsqi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G. Anan'ev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'qilgan inson qayotining eng ijodiy davrlari, etuklik bosqichlari to'qirida fikr yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga erishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shugullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiya yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali qil qil olishdagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

iste'dod sharoitlari;

shaxsiyat;

qobiliyat;

iste'dod;

oilaviy tarbiyasi sharoiti;

o'quv yurti;

o'z xatti-qarakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qoraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

ijodiy individuallik;

o'zining o'sish va takomillashtirish jarayoni;

o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

intellektual - ijodiy tasqabbus;

bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliya ti;

ziddiyatlarga nisbatan xusqyorlik, ijodga tanqidiy yondasquv, vujudan yaratuvchilikka kurasqchanlik qobiliyati;

axborotlarga tasqnalik, muammolardagi qayriodatiylikka va yangilikka bo'lgan qis-tuyqu, professionalizm, bilisqga bo'lgan chanqoqlik (N.V.Visqnekova).

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarisqning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

ijtimoiy moqiyat kasb etgan madaniyatni boyitisq;

pedagogik jarayon va sqaxs bilimlarini yangilab turisq;

samarali va aqamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topisq;

sqaxsning o'z taqdirini o'zi belgilasq va o'zini o'zi namoyon qila olisqi asosida o'z rivojlanisqini ta'minlasq;

Squ tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini sqakllantirisq sqaxs rivojlanisqi va yangilanisqining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tusquniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglasq quyidagilarni qamrab oladi: o'zini bosqqalarga qiyos qilisq asosida o'z sqaxsining betakror ekanligini anglay olisqi; o'zi to'qrisidagi kreativ ko'rinishqlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyqunligi, ichki birligi; sqaxsning o'z rivojlanisqidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida sqakllanisqi; sqaxs o'zini namoyon qila olisqi va o'zining muayyan isqlarni amalga osqirisqga qozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxsqida qila olisqi va sqaxsiy qamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olisqi (V.A.Slastenin).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida» gi Qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
3. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O`zbekiston» 1999 yil.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008. -176 b.
5. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O`zbekiston, 2011. – 440 b.
6. Prezident I.A.Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Halqaro konferentsiyada so`zlagan nutqidan. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral.
7. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b.
8. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» I-II tom.Toshkent-2002y.
9. Ishmuhamedov.R. Pedagogik mahoratni shakllantirishning mazmuni va yo`llari. «Xalq ta'limi» jurnali. 1998 y. 1-son. 50-52 betlar.
10. Kurbonov Sh.M. Ilmiy ijod metodologiyasi. Samarqand, 2005. 56 b.
11. Mahmudov M. O`quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son, 3-11 betlar.
12. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. G`G` «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.
13. Oliy pedagogik o`quv yurtlarining o`quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyasining materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi

TDPU, 2000. 111 b.

14. Rahimov I. Falsafa (qisqacha kospekt). T. 1998 y.
15. Sayidahmedov N. Ta'limda harakatlantiruvchi kuch. «Ma'rifat», 1998 yil, 16 yanvar.
16. Sayidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.
17. Sayidahmedov N.S. O'qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi. – «Xalq ta'limi» jurnali, 1999. 5-son.
18. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil.
19. Qurbonov Sh. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish. -Ma'rifat, 2001 yil 20 iyun, № 48.
20. Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). –T.: Sharq, 1998. 144 b.
21. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., To'raqulov X.A, Haydarov M.. Pedagogika fanidan izzohli lug'at. T-2008y.
22. <http://www.ziynet.uz>.